

**MADANIY MEROS OBYEKTLARINI BOSHQARISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING TURIZM
SOHASIDAGI SAMARADORLIGI**

Usmanova Parvina Xurshedjonovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya


Ushbu tezida madaniy meros obyektlarining turistik jozibadorligini oshirish hamda ularni iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylantirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv strategiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini madaniy meros menejmentiga integratsiya qilishning ahamiyati asoslanib, soha rivoji uchun innovatsion takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *Madaniy meros, turizm strategiyasi, innovatsion boshqaruv, raqamli transformatsiya, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish.*

Kirish

Jahon turizm sanoatida madaniy meros obyektlarining o'rnini beqiyos bo'lib, ular mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. O'zbekiston o'zining boy madaniy-tarixiy salohiyatiga qaramay, mazkur resurslardan iqtisodiy samarali foydalanishda hali ham o'ziga xos muammolarga duch kelmoqda. An'anaviy boshqaruv modellarining cheklanganligi, xizmat ko'rsatish sifatining zamon talablariga to'liq javob bermasligi kabi omillar turizm sektorining to'liq rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Xalqaro tajriba tahlillari shuni ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan, jumladan, virtual haqiqat (VR), to'ldirilgan borliq (AR) va "Smart Heritage" tizimlaridan foydalanish sayyohlarga yanada boy va interaktiv tajriba taqdim etadi. Bu esa o'z navbatida tashriflar sonini oshirib, sohaga yo'naltirilgan investitsiyalarning qaytimini tezlashtiradi. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining keng joriy etilishi obyektlarning saqlanishi va rivojlanishi uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish imkonini beradi. Mazkur model davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytirib, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda samarali hisoblanadi.

Madaniy merosni iqtisodiy jihatdan faollashtirishda klasterli yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ma'lum bir madaniy obyekt atrofida transport, mehmonxona, gastronomik xizmatlar va hunarmandchilik kabi turizm infratuzilmasi yagona tizimga integratsiya qilinadi. Bunday kompleks yondashuv turistik xizmatlarning diversifikatsiyasini ta'minlab, sayyohlarning ushbu hududda ko'proq vaqt o'tkazishiga,



demakki, ko'proq xarajat qilishiga sharoit yaratadi. Bu esa o'z navbatida mahalliy aholi bandligini ta'minlash va hududning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishi doirasida madaniy meros obyektlarini boshqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy-iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya hamda statistik guruhlash usullari tashkil etadi. Madaniy merosni iqtisodiy aktiv sifatida baholashda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirgan holda, mavjud holatni o'rganish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan "benchmarking" metodi qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida madaniy meros obyektlarining turistik jozibadorligini aniqlash maqsadida SWOT-tahlil metodidan foydalanildi. Bunda obyektlarning kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, tashqi muhitdagi imkoniyatlar va xatarlar iqtisodiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqildi. Ma'lumotlarni yig'ish bosqichida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Turizm qo'mitasining rasmiy hisobotlari, shuningdek, UNESCO xalqaro tashkilotining madaniy merosni boshqarish bo'yicha metodik tavsiyalari asos qilib olindi.

Bundan tashqari, madaniy meros obyektlarini boshqarishda taklif etilayotgan yangi metodika – “Digital Management Integration” (DMI) modelini ishlab chiqishda mantiqiy modellashtirish usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali madaniy obyektga tashrif buyuruvchilar oqimi va ularning iqtisodiy xarajatlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik nazariy jihatdan asoslandi. Tadqiqotning empirik qismida esa tarixiy obidalarni saqlash xarajatlari va ulardan keladigan daromadlarni optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modellari elementlaridan foydalanildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi Qonuni, 2019.
- [2] Throsby, D. “Economics and Culture”. Cambridge University Press, 2001.
- [3] Pulatov, A. S. “Madaniy meros va turizm: innovatsion boshqaruv strategiyalari”. Ilmiy maqolalar to'plami, 2023.
- [4] UNESCO. “Recommendation on the Historic Urban Landscape”, 2011.

